
TUMAN HOKIMI MUROJAATI

Rishton tumani hokimi Sufhonjon Solievning qish mavsumini betalafot o'tkazish, anomal sovuq ob-havo sharoitida aholi murojaatlarini tezkor hal qilishga qaratilgan tadbirlarni tizimli davom ettirish yuzasidan MUROJAATI

Assalomu alaykum, aziz rishtonliklar!

Guvohi bo'layotganimizdek, bu yilgi qish mavsumi nisbatan sovuq kelib, butun mamlakatimizda anomal harorat kuzatilmoqda. Bu esa, mavsumni betalafot o'tkazish, aholi murojaatlarini tezkor hal qilishga qaratilgan muhim chora-tadbirlarni tizimli davom ettirishda mahalliy davlat hokimiyati organlari vakillari, sektor rahbarlari hamda kommunal soha tashkilotlari zimmasiga yanada mas'uliyat yuklaydi. Ta'kidlash kerakki, kuz-qish mavsumi davomida aholidan kelib tushadigan murojaatlarni operativ ravishda bartaraf etish choralari belgilovchi va amalga oshiruvchi uzluksiz navbatchilik shtabi tuman hokimligida tashkil etilgan bo'lib, shu kunga qadar shtabga 100 dan ortiq murojaatlar kelib tushgan hamda ularning barchasi o'rnatilgan tartibda ijobiy hal etilgan. Shu kunlarda Respublika bo'yicha anomal sovuq harorat davom etayotgani sababli quvurlarda gaz bosimining keskin pasayishi kuzatilmoqda. Shu munosabat bilan tabiiy gazni birinchi navbatda aholi xonadonlari, elektr energiyasi ishlab chiqaruvchi korxonalar hamda ijtimoiy soha ob'ektlariga yetkazib berish choralari ko'rilmogda. Jumladan, ayrim yirik ishlab chiqaruvchi sanoat korxonalariga tabiiy gaz yetkazib berish hajmi keskin kamaytirildi hamda avtomobillarga gaz to'ldirish shoxobchalari faoliyati qisqa muddatga vaqtincha to'xtatildi. Bu vaqt davomida avtobenzin va dizel yoqilg'isiga talab sezilarli darajada ortishi tabiiy. Ehtiyojni to'liq qondirish maqsadida ushbu mahsulotlar, mavjud zaxiralar hisobidan, qo'shimcha miqdorlarda sotuvga chiqariladi. Biz - sektor rahbarlari soliq va huquq-tartibot idoralari xodimlari bilan birgalikda tumanimiz hududida mavjud benzin quyish shoxobchalarida barcha turdagi avtobenzin mahsulotlarining davlat narxlarida sotilishi bo'yicha qat'iy nazorat o'rnatamiz. Shuningdek, bu mahsulotlarning noqonuniy savdosiga qarshi, belgilangan tartibda, tezkor-reyd tadbirlarini olib boramiz. Bundan tashqari, aholiga suyultirilgan gaz yetkazib berilishi belgilangan reja-jadval asosida, tizimli davom etishi ham doimiy e'tiborimizda bo'ladi.

Hurmatli vatandoshlar!

Havo harorati keskin sovugan shu kunlarda imkon qadar jamoat transportlaridan foydalanishingizni, zarurat bo'lmaganda, uyda qolishingizni hamda xonadoningizda elektr energiyasi va tabiiy gazdan tejamkorlik bilan foydalanishingizni iltimos qilib, keltirilgan noqulayliklar uchun uzr so'rayman. Agar siz avtobenzin mahsulotlarining sotilishida qandaydir cheklovlar joriy etilgani, narxning asossiz oshirilgani yoki bu mahsulotlarning noqonuniy savdosiga duch kelsangiz, zudlik bilan tuman hokimligida tashkillangan markaziy shtabga (73) 452 51 75 telefon raqami orqali murojaat qilishingiz mumkin. Murojaatingiz o'z vaqtida ko'rib chiqilishi va tegishli tartibda bartaraf etilishini kafolatlayman.

Hurmatli tumandoshlar!

Noqulay ob-havo sharoitida yashash xonadoningizdagi gaz va elektr isitish anjomlaridan foydalanishda yong'in xavfsizligi qoidalariga qat'iy rioya qiling; isitish anjomlarining dubburolarini nazorat qilib turing. Xonada gaz hidini sezsangiz, elektr jihozlarini yoqmang. Agar yoniq bo'lsa, o'chirmang va xonani shamollatish choralari ko'ring; favqulodda vaziyatlar, jumladan is gazidan zaharlanish kabi noxush holatlarning oldini olishda o'z hushyorligingiz bilan hissa qo'shing; yong'in yoki boshqa favqulodda vaziyat sodir bo'lganda, zudlik bilan 101 yoki (73) 452-10-54 raqamlariga qo'ng'iroq qiling. O'zingiz va oila a'zolaringizning salomatligiga bee'tibor bo'lmang!

E'tiboringiz uchun rahmat.

2023-01-16 14:26:33